



### AHOLINING IQTISODIY-IJTIMOY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Madraximova Shoxista Baxrom qizi Viloyat bolalar sil kasalliklari sanatoriyasi  
iqtisodchisi

*E-mail adres: shohistamadraximova7@gmail.com*

#### ANNOTATSIYA

Rivojlanib borayotgan iqtisodiyot bilan bir paytning o'zida o'sib borayotgan talabning o'zaro uyg'unlikda ehtiyojlarni moddiylashtirish jarayonida yaratilgan moddiy ne'matlar yaratishda jamiyatning ijtimoiy tarkibi o'z xissasani qo'shib bormoqda, vaholangki jamiyatning ijtimoiy tarkibi iqtisodiy o'sishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda, aholining o'rta sinf qatlami undagi iqtisodiy faol aholi jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib, uning o'sish omillaridan sarmoyalar, inson kapitalini o'rganishga katta qiziqish uyg'otmoqda.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy sinflar, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik, sanoat inqilobi, zamonaviy kadrlar, harid qobiliyati, kichik biznes, intellektual bozor, inson va kapital omili.

#### **Kirish.**

Aholining iqtisodiy rivojlanishi jarayonida jamiyatning kichik bir mulkdor qismi kichik biznes bilan shug'ullanib kelgan. Ilk rivojlanish chog'ida ham iqtisodiy ijtimoiy mulkiy taraflama sinflashgan jamiyat mulkiy jihatdan mustaqilligi, jamiyatning tabaqalashgan aholisi tadbirkorlik, tashabbuskorlik faoliyati bilan davlatga jamiyatga, aholining yuqori qatlami iqtisodiy jihatdan tobe bo'lmaganligi hususiyatlari bilan ajralib turgan.

Dastlab Amerikada tabaqalashib borgan ijtimoiy tabaqalashgan sinf vakillari iqtisodiyotning qishloq xo'jaliklarida o'z mulkidan kelib chiqib o'zining yerlarida iqtisodiy faoliyat bilan tadbirkorlik bilan shug'ullanib rivojlanib kelgan, mustaqil iqtisodiy faoliyat olib borgan va ijtimoiy sinflarga ajralgan, o'z mulkiy jihatdan iqtisodiy faoliyat bilan



shug'ullangan hamda undan kelayotgan foydasi orqali Yevropada rivojlangan bunday ijtimoiy sinflardan farqlangan. G'arbiy Yevropa mamlakatlarida, sanoatning rivojlanishi, sanoat inqilobida rivojlangan iqtisodiyotning rivojlanishiga o'z xissasini qo'shgan injener, texnolog, menejer va boshqa ilg'or ommaviy industrial kasb egalaridan, zamonaviy kadrlar yangi mutaxassisliklarni qayta tayyorlash bo'yicha aholining ijtimoiy sinf vakillarini zamonaviy kasblarga yo'naltirilib ijtimoiy qatlamda aholining "yangi ishchi sinf", "yangi o'rta sinf", "yangi burjuaziya" sifatida shakllangan va iqtisodiy faol aholinig mamlakatda ish bilan taminlanganligi sezilarli qismini tashkil qilgan. Jamiyatda, ijtimoiy qatlamning intellektual salohiyatining o'sishi har bir davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasi iqtisodiy o'sish salohiyatini ko'rsatib beradi.

Rivojlanib borayotgan bu iqtisodiy davrda ijtimoiy sinf qatlam vakillarining rivojlanish, iqtisodiy erkinlikka erishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tarkibi, chegarasini bilishda ma'lum noaniqliklar va muammolar mavjud. Xozirgi kunda rivojlangan davlatlarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan kundalik daromad darajasi, ko'chmas mulk hajmi, tashabbuskorlik va iqtisodiy faollik, zarur minimal ta'lim bilan bog'liq madaniy-ma'rifiy salohiyat va oila qadr-qiymati, nufuzi kabi sifat va miqdor ko'rsatkichlari asos qilib olishga barcha rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar ham tayyor emasliklari ma'lum bo'ldi.

Xalqaro moliya institutlari o'rta sinf mavqeini oshirish va nisbiy kambag'allikni kamaytirish maqsadida bu sinf toifasiga kundalik daromadi 2-10 dollargacha bo'lgan aholi qatlamini kiritishadi va dunyoda 1,8 mlrd. kishi yoki 35 foizdan ko'proq aholi o'rta sinfga munosib deb hisoblashadi<sup>9</sup>. Yevropa mamlakatlarda kunlik daromad 15 dollar, masalan AQShni olib karasak 20 dollarligini, bu ko'rsatkichlar aholining turmush darajasidan ko'rinib turibdiki aholining ijtimoiy qatlami asos qilib olinsada, ma'lum bir miqdor sun'iy ravishda jamiyat aholisining kambag'allik darajasini pasaytirishga va iqtisodiy rivojlanayotgan davlatlar rivoji haqiqatdan xam uning iqtisodiy o'sishi shubxali ko'rinadi.

Bu munozarali yondashuvning kamchiliklarini bartaraf etish va ayrim mamlakatlar o'rtasidagi kundalik daromaddagi farqning o'ta kattaligini e'tiborga olib olimlar o'rta sinf

<sup>9</sup> Kharas H. The Emerging Middle Class in Developing Countries// OECD Development Centre Working Paper. 2010. No 285



tarkibiga xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha jon boshiga kundalik 10 dollardan kam bo'lmagan daromadga ega bo'lgan aholi toifasini kiritishadi.<sup>10</sup> Shuningdek, jahon banki 2007 yili o'rta sinf toifasini ko'pchilik davlatlarga maqbulroq haqqoniy darajasini belgilash uchun kundalik yoki oylik daromadni emas, XQP bo'yicha yillik katta interval ko'rsatkichi (4000-17000 dollar) orqali kiritish taklifi bilan chiqdi<sup>11</sup>. Bunday interval asosida ijtimoiy qatlamning rivojlangan davlatlardagi xissasiga qaraganda rivojlanayotgan mamlakatlarda salmog'i yuqori, shunday ekan ijtimoiy qatlamning sinflarga ajralishi o'ziga xos xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Taxlillarga ko'ra ijtimoiy katlamni sinflarga ajratishda aynan bir xil qoidaga asoslanmasdan, har taraflama o'rganib chiqish unga tasir kiluvchi omillar asosida kengrok o'rganishimiz mumkin.

D.Gilbert, U.Tompson, DJ.Xikki, DJ.Xenslin va boshqa taniqli amerikalik olimlar o'rta sinf toifasi yuqori qismiga kompaniyalarning yuqori bilimli va katta daromad oladigan top menejerlarini, o'rta qismiga sanoatda ishlaydigan yaxshi daromad oladigan, maxsus bilimga ega va quyi qismiga esa asosiy intervalning minimal talablariga mos keladiganlarni kiritish orqali uch bosqichli o'rta sinf modelini taklif qilishdi.<sup>12</sup> 2010 yili Osiyo taraqqiyot banki bu uch bosqichli o'rta sinf modeli bo'yicha rivojlanayotgan Osiyo va Tinch okeani mamlakatlari taraqqiyot darajalari xususiyatlarini hisobga olib bu sinf tabaqalarini aniqlash uchun muaffiqlashtirilgan minimal va maksimal nuqtalarini ishlab chiqdi.<sup>13</sup> Taxlillarga asosan aholining ijtimoiy o'rta qatlam sinfi kundalik iste'molning jon boshiga sarfi 10-20 dollar, o'rta sinf uchun 4-10 va quyi o'rta sinf uchun esa 2-4 dollar deb tavsiya qilindi. Taxliliy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida, aholining ijtimoiy o'rta sinfining ehtiyojlari, moddiy, ma'naviy va boshqa kundalik xayoti sifat va miqdor darajalaridan foydalansak tahlillar natijalari to'g'ri bo'ladi, shuningdek, AQShda aholining ijtimoiy sinf qatlamining iqtisodiy o'sishi avvalo aqliy intellektual salohiyatiga bog'liqdir inson omilining intellektual salohiyatidan intellektual bozor jadal rivojlangan

<sup>10</sup> Birdsall N The (Indispensable) Middle Class in Developing Countries; Or, The Rich and the Rest, Not the Poor and the Rest. Center for Global Development // Working Paper No 207/ Center for Global Development. Washington, DC, 2010. March.

<sup>11</sup> Kharas H. The Emerging Middle Class in Developing Countries. P.11

<sup>12</sup> Wikipedia Foundation, Inc.(VSA) <http://en.wikipedia.org/wiki/Social-class>.

<sup>13</sup> Asian Development Bank: [www.adb.org/Documents/Books/Key\\_Indicators/2010/Country](http://www.adb.org/Documents/Books/Key_Indicators/2010/Country).



Intelektual bozorlarning rivojlanishi raqamli iqtisodiyotning poydevoridir, chunki rivojlanayotgan mamlakatlar - Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoyda aholining ijtimoi o'rta qatlam sinfnining iqtisodiy salohiyatining usishiga davlatning ichki olib borayotgan oqilona siyosati asnosida aholi iqtisodiy o'sishiga erishilmoqda. Nisbatan yuqori o'sishga erishagan bu mamlakatlarda o'rta sinf toifasini belgilaydigan qator ko'rsatkichlar asosida bu tabaqaga Braziliyada 52foiz, Rossiya va Hindistonda 30 foizdan oshiq, Xitoyda 23 foiz atrofida aholi kiritilmoqda.<sup>14</sup>

O'zbekistonda bozor islohotlarining chuqurlashuvi va jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik o'rta sinf shakllanishi bilan bog'liqligi va bu tabaqaning rivojlanishda uning asosini tashkil qilgan kichik biznesning muhim o'rniga katta e'tibor berilgan. O'rta sinfni N.To'q'liev, A.Taksanovlar, kasbidan, sinfidan va urug'-aymoqchiligidan qat'iy nazar yetarli moddiy mablag'ga ega bo'lib, shu asosda murakkab iqtisodiy sharoitlarda faoliyat olib borishga qobiliyatli va jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlashga layoqatli bo'lgan aholi qatlami deb ta'riflaydilar hamda uning jamiyatdagi iqtisodiy va siyosiy funksiyalarini ham alohida ta'kidlaydilar<sup>15</sup> Iqtisodchi olim M.Rasulov biznesning yorqin namoyondalari bo'lgan tadbirkorlar bilan o'rta sinf, mulkdorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik jarayonlarini ta'riflab, "Tadbirkor mulkdor mayda, o'rta va yirik mulk egasidir. Mulkdorlar sinfi deganda, birinchi navbatda, tadbirkorlikni tushinamiz", deydi.<sup>16</sup> Shuningdek, o'rta sinfni aniqlash bo'yicha xorijiy tajribalarni keng tahlil qilib mamlakatimizda bu tabaqaga mansublikni belgilash ko'rsatkichlari ham taklif qilingan.<sup>17</sup>

Kichik biznesni yuqori sur'atlarda ustuvor yo'nalish sifatida qarashib uning taraqqiyoti har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, shu jumladan, zarur investitsiyalar hajmi o'sishi o'rta sinf hissasini salmoqli oshishiga olib keldi. Iqtisodiy tadqiqotlar markazi hisob-kitoblari va ayrim ekspert va tadqiqotchilar baholashi bo'yicha mamlakatimizda hozirgi davrda 50 foiz, ayrim manbalarda esa turli uslublarga asoslangan holda undan ham ortiqroq aholi o'rta sinfga mansub deb hisoblashmoqda va 2030 yilga borib esa 37 mln mamlakat

<sup>14</sup> Махкамова Ш.Ю. Зарубежный опыт определения среднего класса.// "Экономика и финансы" 2013. №6 стр. 43-44

<sup>15</sup> Тухлиев Н., Таксанов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. Т.: "Ўқитувчи", 2000, стр. 200.

<sup>16</sup> Расулов М. Бозор иқтисодиёти асослари. Тошкент: "Ўзбекистон", 1999, 244б.

<sup>17</sup> Салаев С., Тожиев Б., Хажиев У. Хорижий давлатларда аҳолининг кичик ва ўрта мулкдорлар синфига мансублигини аниқлашнинг айрим назарий – услубий масалалари. // Илм сарчашмалари. 2011, № 4, бет.-19.



aholisining 60 foizidan oshiqrog'i mazkur sinfga mansub bo'lishi va kam ta'minlanganlar soni esa 15 dan 8 foizga, ya'ni deyarli ikki barobar qisqarishi bashorat qilinmoqda. Shuningdek, inson omilining asosi bo'lgan zamonaviy ta'lim tizimining o'rta sinf shakllanishi, ayniqsa uning tarkibi yaxshilanishidagi o'rnini hisobga olib yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni 60,9 mingdan 160 ming kishiga yetkazish, oliy ta'lim ko'lamini 10 dan 25 foizga ko'tarishni va mutaxassisliklar kesimidagi ustivorlikni qayta ishlash sanoati tarmoqlari, xizmat ko'rsatishning murakkab sohalariga berishni va bu mutaxassisliklar bo'yicha bitiruvchilar hissasini oshirishni taklif qilishmoqda.<sup>18</sup>

### **Xulosa.**

Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish avvalo aholining ijtimoiy o'rta sinfini intellektual bilim salohiyatini kuchaytirish ijtimoiy-iqtisodiy omillarga bog'liqligi, ulardan oqilona foydalangan holda har tomonlama tahlillar asosida olib borilishi lozim:

**birinchidan**, inson omilining iqtisodiy o'sishga tasiri avvalo uning aqliy zakovatining yuksalishi bilan baholanib uning tadbiq qilgan innovatsiyalari bilmining kuchliligi tadbirkorlarning yangilik yaratishiga zamin yaratadi. Bu sinf vakillarining izlanuvchanligi innovatsiyaga intilishi kuchaytirishda avvalo ularning bilim manbaini kuchaytirmoq lozim bunda yashayotgan jamiyatimizning, davlatimizning inson omiliga bo'layotgan e'tibori, ya'ni ta'lim tizimiga qilayotgan investitsiyasi ta'limni islox qilish, asosiy yo'nalish manbai sifatida asoslashga yo'naltirilgan tadqiqot izlanishlarini kengaytirishi, tajribalar almashish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashi kerak;

**ikkinchidan**, inson va kapital omilini oshirish, mehnat taqsimotini uning unumdorligini, samaradorligini oshirish, innovatsiyalardan oqilona foydalangan xolda iqtisodiyotimizni jadal o'sishini ta'minlash maqsadida tabiatdagi resurslardan oqilona foydalanib real sektordagi moddiy, energetik xarajatlarni kamaytirishga erishish, mamlakat yalpi ichki mahsulotida innovatsion mahsulot ulushini oshirishda asosiy ishtirokchi bo'lgan aholining ijtimoiy o'rta qatlam sinfini har tomonlama qo'llab quvvatlash;

<sup>18</sup> Статистик тўплам “Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари” Тошкент: “Ўзбекистон” 2011, 836. Райханов У.А Ижтимоий-иқтисодий ислохотлар чуқурлашувида ўрта синфнинг роли.// Иқтисод ва молия 2013. №4. 246. Мухамедханова К. Социальная защита: на пороге нового этапа.// Экономическое обозрение. 2014, №1, стр.36-37.





**uchinchidan**, aholining ijtimoiy oʻrta qatlam sinfining tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanishi uchun qulayliklar yaratish lozim. Har tomonlama iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, qoʻllab quvatlash iqtisodiy faoliyatida biron nimani tadbiq qilishiga imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy xayotimizni barqarorligini taminlashga erishish maqsadida avvalo jamiyatda ijtimoiy tenglikka, barqaror iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashga erishimiz;

**Toʻrtinchidan**, davlatimizda siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy faravonlikni, odilona olib borilayotgan iqtisodiy ijtimoiy siyosatning xavfsizligini taminlashga qaratilgan inson kapitalining yani ijtimoiy tabaqaning mavqei va nufuzini, uning aqliy salohiyati inobatga olinib uning jamiyatdagi yangi ijtimoiy–siyosiy tizim sifatida shakllanishdagi oʻrni va ahamiyatini turli maxsus miqdor va sifat usullari, jumladan, iqtisodiy-statistik, sotsiologik soʻrovnomalar, ekspert baholash va boshqa usullar orqali fanlararo tahlillar, tadqiqotlar oʻtkazish va tahlillar asosida bu ijtimoiy tabaqaning jamiyat va iqtisodiyotdagi mavqeyini oshirish toʻgʻri baholash hamda ular siyosiy erkinliklarini, oʻz-oʻzini boshqarishining institutsional yoʻnalishlarini yanada takomillashtirish va boshqalar.

## References

1. Kharas H. The Emerging Middle Class in Developing Countries// OECD Development Centre Working Paper. 2010. No 285.
2. Birdsall N The (Indispensable) Middle Class in Developing Countries; Or, The Rich and the Rest, Not the Poor and the Rest. Center for Global Development // Working Paper No 207/ Center for Global Development. Washington, DC,2010. March.
3. Kharas H. The Emerging Middle Class in Developing Countries. P.11
4. Wikipedia Foundation, Inc.(VSA) <http://en.wikipedia.org/wiki/Social-class>.
5. Asian Development Bank: [www.adb.org/Documents/Books/KeyIndicators/2010/Country](http://www.adb.org/Documents/Books/KeyIndicators/2010/Country).
6. Махкамова Ш.Ю. Зарубежный опыт определения среднего класса.// “Экономика и финансы” 2013. №6 стр. 43-44
7. Тухлиев Н., Таксанов А. Национальная экономическая модель Узбекистана. Т.:, “Ўқитувчи”, 2000, стр. 200.
8. Расулов М. Бозор иқтисодиёти асослари. Тошкент: “Ўзбекистон”, 1999, 244б.



9. Салаев С.,Тожиев Б.,Хажиев У.Хорижий давлатларда аҳолининг кичик ва ўрта мулкдорлар синфига мансублигини аниқлашнинг айрим назарий –услубий масалалари. // Илм сарчашмалари. 2011, № 4, бет.-19.
- 10.Статистик тўплам “Ўзбекистон Республикаси иқтисодий-ижтимоий тараққиётининг мустақиллик йилларидаги (1990-2010 йиллар) асосий тенденция ва кўрсаткичлари ҳамда 2011-2015 йилларга мўлжалланган прогнозлари” Тошкент: “Ўзбекистон” 2011, 83б. Райханов У.А Ижтимоий-иқтисодий ислохотлар чуқурлашувида ўрта синфнинг роли.// Иқтисод ва молия 2013. №4. 24б.Мухамедханова К. Социальная защита: на пороге нового этапа.// Экономическое обозрение. 2014, №1, стр.36-37.